TILSHUNOSLIK

UDK: 494.375 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a106**

O‘ZINIKI BO‘LMAGAN KO‘CHIRMA GAPLARDA OBRAZLILIKNI TA’MINLOVCHI SEMANTIK-STILISTIK FAKTORLAR

СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОЙ КОСВЕННОЙ РЕЧИ, ВЫРАЖАЮЩЕЙ ОБРАЗНОСТЬ

SEMANTIC-SYNTACTIC FACTORS IN THE INDIRECT SPEECH, EXPRESSING FIGURATIVENESS

Siddiqova Shoxida Isoqovna[1]

[1]**Siddiqova Shoxida Isoqovna** – Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda obrazlilikni ta’minlovchi semantik-stilistik faktorlar xususida fikr yuritiladi. Ma’lumki, nutq o‘ta murakkab jarayon bo‘lganligi uchun so‘zlovchi tinglovchiga bo‘lgan munosabatini har doim ham o‘zi istaganiday ifodalay olmaydi. Shunday vaziyatlarda so‘zlovchi tomonidan kundalik nutqda faol qo‘llanilib kelingan so‘zlar uning nazarida emotsional-ekspressiv munosabatini nutq qaratilgan narsa va predmetlar yoki shaxslarni o‘z istagi darajasida ifodalashga ojizlik qilib qoladi. Munosabat ifodalashga xizmat qilgan va emotsional-ekspressivlik ifodalanishning eng qulay vositasi bo‘lgan metaforalar asosida obrazlilik yotadi. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo‘llashga xos hodisa sifatida nutqning turli ko‘rinishlarida, xususan, badiiy matnlarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tarzida berilishida muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda badiiy matnlarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda personaj xarakter-xususiyatlarini yoritish, uning ichki kechinmalari, atrofdagilarga munosabatini ochib berish ko‘zda tutilgani bois, ularda munosabat ifodalovchi so‘zlarning ham salmoqli o‘rin egallashi tabiiy.

Аннотация

В данной статье рассматриваются семантические и стилистические факторы, обеспечивающие образность посредством несобственных прямых речь. Известно, что речь – очень сложный процесс, поэтому говорящий не всегда может выразить свое отношение к слушателю так, как ему хочется. В таких ситуациях слова, активно употреблявшиеся говорящим в повседневной речи, по его мнению, становятся неспособными выразить его эмоционально-экспрессивное отношение к вещам и предметам или лицам, на которые направлена речь. Образность основана на метафорах, которые служат для выражения отношения, а эмоциональная выразительность является наиболее удобным средством выражения. Образность как явление, характерное для любого метафорического применения, играет важную роль в различных формах речи, в частности, в художественных текстах, в форме цитаты, не являющейся собственной. На данном этапе в художественных текстах использование не собственных цитат призвано осветить характеристики героя, его внутренние переживания, его отношение к окружающим людям, поэтому важное место в них занимают слова, выражающие отношение. естественно занимать.

Abstract

This article discusses the semantic and stylistic factors that provide imagery through non-own quotations. It is known that speech is a very complex process, so the speaker cannot always express his attitude to the listener as he wants. In such situations, the words that have been actively used by the speaker in everyday speech, in his opinion, become incapable of expressing his emotional-expressive attitude to the things and objects or persons to which the speech is directed. Imagery is based on metaphors, which serve to express attitude and emotional expressiveness is the most convenient means of expression. Figurativeness, as a phenomenon characteristic of any metaphorical application, plays an important role in various forms of speech, in particular, in artistic texts, in the form of a quote that is not one's own. At this point, in artistic texts, the use of quotations that are not one's own is intended to illuminate the character's characteristics, his inner experiences, and his attitude to the surrounding people, so the words expressing attitude have an important place in them. it is natural to occupy.

Kalit so‘zlar: *o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar, obrazlilik, personaj xarakter-xususiyatlari, emotsional-ekspressiv munosabat, semantik-stilistik faktorlar.*

Ключевые слова: *чужие цитаты, образность, черты характера, эмоционально-экспрессивная установка, семантико-стилистические факторы*

Key words: *quotations that are not his own, imagery, character traits, emotional-expressive attitude, semantic-stylistic factors.*

KIRISH

Jamiyat tinimsiz taraqqiy qilar ekan, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar tilning barcha sathlari qatori uning sintaktik qurilishida, xususan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar shaklida ham o‘z aksini topishi tabiiy, albatta. Shunga ko‘ra personaj ruhiyatini ochib berishda tasviriy vositalardan biri bo‘lgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar o‘zining emotsional-ekspressiv, ta’sirchanlik

vositasi sifatidagi estetik qirralarini badiiy matnda to‘liq namoyon etadi. Badiiy matnlarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda personaj xarakter-xususiyatlarini yoritish, uning ichki kechinmalari, atrofdagilarga munosabatini ochib berish ko‘zda tutilgani bois, ularda munosabat ifodalovchi so‘zlarning ham salmoqli o‘rin egallashi tabiiy. Bunga personajning o‘zining faoliyatidan , shuningdek, boshqa shaxslarning xatti-harakatidan qoniqmasligi sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda bu munosabat birgina so‘zlovchining emas, balki ijtimoiy tuzumga, jamiyat faoliyatiga ham aloqador bo‘ladi. Bunday hollarda munosabat ifodalovchi birliklar mazmunan siyosiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

N.Mahmudov ta’kidlaganiday, “estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta’sir quvvatini namoyon etadi” [1.51].

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar o‘zbek tilshunosligida B.Yo‘ldoshev va S.Isroilovlar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmasida anchayin xolis va batafsil ko‘rsatilgan. “O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapning grammatik-stilistik xususiyatlari va badiiy tekstdagi o‘rni” deb nomlangan bu o‘quv qo‘llanmasida o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning umumiy tavsifi berilib, uning grammatik-intonatsion xususiyatlari o‘rganilgan, shuningdek, sintaktik variantlari, badiiy nutq tuzilishidagi o‘rni, xalq og‘zaki ijodi, she’riy va nasriy matnda qo‘llanilishi atroflicha bayon qilingan [2.27].

Badiiy matnda fikr ifodalashda faol qo‘llaniladigan sintaktik birliklar qatori o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar, albatta, obraz, xarakter va tasvir yaratish vazifasini bajaradi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap badiiy matnda nutqning ichki yoki tashqi ko‘rinishida ifodalanishidan qat’i nazar, personaj holati, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini muallif istagiga mos holda badiiy-estetik tasvirlash imkonini beradi, ya’ni tilning estetik vazifasi yorqin ifodalanadi [3.98].

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asari ishtirokchilaridan biri Komissar obrazidir. U sobiq sho‘rolar tuzumining puch g‘oyalari ta’sirida ulg‘aygan va bu tuzumning har qanday iflos topshirig‘ini ham bajarishdan qaytmaydigan kishi. Muallif asarda Komissar xarakter-xususiyatlarini yoritishda ortiqcha ta’rif-u tavsiflardan qochadi. Komissarning o‘zi haqidagi fikrlari uning ichki monologi orqali namoyon bo‘ladi. Komissar jamiyatga munosabat bildirish orqali o‘zining jamiyatda tutgan o‘rnini belgilashga harakat qiladi:

So‘tag-yey! Jo‘jaxo‘roz-yey! *Qo‘yib bersa meni so‘roq qilmoqchi! Meni-ya! Jangovar Qizil Bayroq, Qizil Yulduz ordenlari kavaleri, kimsan Komissarni-ya! Avval burningni artib ol,* ***mishiqi!*** *Sovet organining kuni shularga qoldimi endi? Qayoqqa qarab ketyapmiz o‘zi? Xo‘p zamonlar o‘tgan ekan-da? Egningda charm palto. Boshingda shapka. Yoningda nagan. Qaysi eshikni taqillatsang ko‘radi-yu, taxta bo‘ladi-qoladi. “Grajdanin falonchi sizmi?” – desang, tili kalimaga kelmaydi,* ***unsur****ning!..*

Zamon aynib ketdi, zamon! Hamma “demokratiya” deb chinqiradi. “Perestroyka”, deydi! Oshkoralik deydi!(O‘. Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”)

Ma’lumki, nutq o‘ta murakkab jarayon bo‘lganligi uchun so‘zlovchi tinglovchiga bo‘lgan munosabatini har doim ham o‘zi istaganiday ifodalay olmaydi. Shunday vaziyatlarda so‘zlovchi tomonidan kundalik nutqda faol qo‘llanilib kelingan so‘zlar uning nazarida emotsional-ekspressiv munosabatini nutq qaratilgan narsa va predmetlar yoki shaxslarni o‘z istagi darajasida ifodalashga ojizlik qilib qoladi. Yuqoridagi matnda personaj – Komissar o‘z fikr ifodalash imkoniyatining cheklangan ekanligidan kelib chiqib, mana shu nuqsonni bartaraf etish maqsadida “so‘tak”, “jo‘jaxo‘roz”, “mishiqi” “unsur”, “poraxo‘r” kabi haqorat ifodalovchi so‘zlardan foydalanganligi seziladi. Munosabat ifodalashga xizmat qilgan va emotsional-ekspressivlik ifodalanishning eng qulay vositasi bo‘lgan metaforalar asosida obrazlilik yotadi. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo‘llashga xos hodisa sifatida nutqning turli ko‘rinishlarida, xususan, badiiy matnlarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tarzida berilishida muhim o‘rin tutadi. “Badiiy nutq obrazli nutqdir. Badiiy nutqning obrazliligi so‘zlardan, grammatik formalardan o‘z va ko‘chma ma’nolarida maqsadga mos foydalanish, nutqda obrazli vositalarni, stilistik usullarni o‘rinli qo‘llash natijasida kuchayadi. Shunga ko‘ra badiiy nutqda obrazlilikni ta’minlovchi ham lingvistik, ham stilistik faktorlar mavjud. Nutqiy obrazlilikni ta’minlovchi lingvistik faktor bevosita so‘z qo‘llash bilan bog‘liq... Stilistik faktor bevosita obrazli vositalar,stilistik usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi.” [4.85] Yozuvchining badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar zimmasiga uslubiy vazifalar yuklashi ularning o‘quvchi shaxs tomonidan tez va to‘g‘ri tushunilishini ta’minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy asarlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda shu gaplar tarkibida ishtirok etayotgan va personaj ruhiyatini, uning ichki kechinmalari tasviriga asoslangan leksik-frazeologik vositalarning tadqiq etilayotgan matnning lingvostilistik va badiiy-estetik qimmatini belgilashda, lisoniy shaxsga xos belgilarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ular badiiy asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlashdan tashqari personaj nutqini tavsiflashda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor bu gaplardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan asar tilining ifodali va ta’sirchanligini ta’minlashga erishadi. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishini ta’minlashdan tashqari tasvirlangan nutqiy vaziyat, unda ishtirok etuvchilarning ruhiy holatini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantiradi, kitobxonda ularga nisbatan ma’lum bir subyektiv munosabat uyg‘onishiga asos bo‘ladi.

Tilimizda bir qator so‘zlar borki, ular odamning faoliyati, jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyi, xarakteriga xos turli xil belgi, xususiyatlarini anglatadi. Bu so‘zlarning leksik ma’nolarida nutq obyekti bo‘lgan shaxs yoki predmetni so‘zlovchi maqsadiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy emotsional baholash xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Tilimizda bunday so‘zlar ijobiy yoki salbiy ma’no ifodalash xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Tilimizda g‘ayriaxloqiy so‘zlarning ham ma’lum qismi ana shunday baholash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlardan tashkil topgan. Bunday birliklar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda personajni tavsiflashda muhim vosita sifatida ishtirok etadi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tarkibida qo‘llanilgan g‘ayriaxloqiy so‘zlar salbiy qahramonlarning nutqini individuallash, ularga xos salbiy tomonlarni yanada bo‘rttirish uchun ishlatiladi. Ayrim hollarda ijobiy qahramonlar nutqida ham bunday so‘zlar ishlatilishi mumkin. Bunda ular shu personajning o‘ta hayajonlanganligi yoki g‘azablanganligi, o‘zini tuta olmasligi oqibatini haqqoniy aks ettirish uchun qo‘llanadi.

Yuqoridagi matnda keltirilgan Komissar obrazi faoliyati va uning jamiyat o‘zgarishlariga, qonun-qoidalariga hamda kishilarga munosabatini tahlil qilish orqali ichki monolog tarzida berilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning badiiy matnda tutgan o‘rni haqida muayyan xulosalarga kelish mumkin.

Personajning o‘z mavqeini tergovchi mavqei bilan qiyoslashi uning o‘ziga yuqori baho berib, o‘zini boshqalardan ustun deb hisoblashi, tergovchiga mensimay munosabatda bo‘lishiga asos bo‘ladi: ***Avval burningni artib ol, mishiqi! Sovet organining kuni shularga qoldimi endi? Qayoqqa qarab ketyapmiz o‘zi?***

Asarda Komisssar o‘z nutqi, xatti-harakati bilan salbiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zaro muloqot jarayonida uning o‘z-o‘zini baholashida maqtanchoqlik va ayni vaziyatda voqelik faktlaridan norozilik, afsus semasi bo‘rtib turadi. Shuning uchun uning ichki nutqida baholash ko‘pincha shikoyat nutqiy akti bilan uyg‘unlashib ketadi: ***Xo‘p zamonlar o‘tgan ekan-da? Egningda charm palto. Boshingda shapka. Yoningda nagan. Qaysi eshikni taqillatsang ko‘radi-yu, taxta bo‘ladi-qoladi. “Grajdanin falonchi sizmi?”*** – ***desang, tili kalimaga kelmaydi, unsurning!..***

Komissar obrazi tahlilidan yana shu narsa anglashiladiki, baholash jarayonida uning o‘zini jamiyat a’zolaridan ustun deb bilishi uning ruhiy holati, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari bilan qorishgan holda namoyon bo‘ladi. Baholashda u o‘zi mansub bo‘lgan millatni haqoratlash, kamsitib “kallavaaram” deyishgacha borib yetadi: ***Ambarsumyan – malades! Kallavaram o‘zbekning nozik joyidan mahkam ushladi! Manaman degan obkomlaru raykomlarni, raislaru bugaltirlarni g‘ippa yoqasidan oldi! “Marhamat qilib, to‘plagan millionlarni cho‘zib qo‘y! Ochig‘ini ayt! Kimdan oldingu kimga cho‘zding? Qachon? Qancha?” Mana buni haqiqiy stalincha metod desa bo‘ladi! Otangga rahmat-e, shovvoz!***

Fikrlash jarayonida Komissarning baholash doirasi kengayib, globallashib boradi va jamiyat haqidagi umumlashma xulosalari ***“Zamon aynib ketdi, zamon! Hamma “demokratiya” deb chinqiradi. “Perestroyka”, deydi! Oshkoralik deydi!”*** *tarzida namoyon bo‘ladi.*

Ko‘rinadiki, asar muallifining ko‘zlgan maqsadi, ya’ni personajning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini badiiy tasvirlash orqali kitobxonda ma’lum bir munosabat uyg‘otishga erishishida o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar muhim uslubiy vazifa bajaradi.

XULOSA

Matnni o‘rganishda semantik-stilistik nuqtayi nazaridan yondashuvda birinchi o‘ringa semantik yo‘nalish chiqadi. Bog‘liqlik semantik nuqtayi nazardan matnning konseptlashuvi va voqelik parchasi bilan mos kelishiga asoslanadi. Matnning asosiy belgilari bo‘lgan butunlik, yaxlitlik, tugallanganlik kabilar nutqiy, kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, matn nutqiy, kommunikativ birlik sifatida qaraladi. Uning lisoniy birlikdan farqlanuvchi tuzilishdagi o‘ziga xos qonuniyatlari va amal qilishiga urg‘u beriladi.

Umuman olganda, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali obrazlilikni ta’minlovchi semantik-stilistik faktorlar badiiy matnda emotsionallikni oshiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маҳмудов Н.Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари.–2006. –№2 (11). – Б.51.

2. Йўлдошев Б., Исроилов О. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапнинг грамматик-стилистик хусусиятлари ва бадиий текстдаги ўрни. –Самарқанд: СамДУ, 1991. В.27.

3. Сиддиқова Ш.И. Ўзга гаплар тадқиқи. Монография. Тошкент Innovatsion-Ziyo” 2021. Б. 98.

4. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. Тошкент: Фан, 1988, Б.85.